

## **O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirining sohada korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha MUROJAATI**

### **Hurmatli hamkasblar va soha xizmatlaridan foydalanuvchilar!**

Darhaqiqat, so‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo‘yishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Ta‘kidlash joizki, mazkur islohotlarni amalga oshirishda raqamli texnologiyalar muhim o‘rin tutadi.

Shu bois, iqtisodiyot tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali biz jamiyatimizda oshkoralikni ta‘minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi sa‘y harakatlarimizda kutilgan natijalarga erishishimiz mumkin.

Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha Raqamli texnologiyalari vazirligi tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek, ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi elektron platformalar ishlab chiqilgan.

Vazilik hamda uning tizimidagi tegishli korxonalar, tashkilot va muassasalarda Korrupsiyaga qarshi kurashish (“komplaens nazorat” tizimi) bo‘yicha ichki nazorat tuzilmalari joriy etilib, ular tomonidan ham bir qator ishlar olib borilmoqda.

“Komplaens nazorat” tizimi to‘laqonli ishlashini ta‘minlash maqsadida mavjud ichki idoraviy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritildi va yangi idoraviy hujjatlar (nizom, tartib va reglamentlar) ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Sohada korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha keng targ‘ibot ishlari olib borilmoqda. Ushbu ishlarni tizimli yoritish maqsadida Vazirlikning rasmiy veb-saytida korrupsiyaning oldini olish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash maqsadida tegishli sahifalar va ruknlar tashkil etilib, mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar haqidagi ma‘lumotlar, tegishli me‘yoriy hujjatlar va hisobotlar joylashtirib borilmoqda.

Videokonferens aloqa tizimidan foydalangan holda har haftalik o‘quv soatlari tashkillashtirilib, tizimdagi korxonalar va tashkilotlarning rahbar va xodimlariga turli yo‘nalishlarda ma‘ruzalar, seminarlar o‘tkazilmoqda hamda keng tushuntirish ishlari olib borilmoqda;

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan taqdim etilgan namunaviy hujjatlarning mazmun-mohiyati bo‘yicha

ushbu o'quv soatlari davomida keng tushuntirish ishlari olib borildi va soha xodimlari tomonidan berilgan savollarga javoblar berildi.

Bulardan tashqari, tizimdagi korxonalar va tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli bo'linmalari mutaxassislari tomonidan bannerlar va turli materiallar, taqdimotlar tayyorlanib, xodimlarga ko'rinadigan joylarda, rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilmoqda.

Soha bo'yicha korrupsiya xavf-xatariga duch kelishi mumkin bo'lgan davlat xizmatchilarining faoliyat sohalari va lavozimlari, shuningdek, ularning funksiyalari (vakolatlari) o'rganilib, bu yo'nalish bo'yicha ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

Vazirlikda malakali kadrlarni tanlash jarayonining yanada shaffofligini ta'minlash maqsadida Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi bilan kelishilgan holda "Ishga qabul qilish, xodimlarni boshqa lavozimga o'tkazishda tanlov asosida saralab olish to'g'risida TARTIB" tasdiqlandi. Vazirlikning tegishli buyrug'i bilan ushbu tartib 2022-yil 1-yanvardan amaliyotga joriy etilgan. Kadrlarni ishga qabul qilish, xodimlarni boshqa lavozimga o'tkazish masalasi Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligining maxsus platformasi orqali tanlov asosida tashkil etilmoqda.

Vazirlikda davlat xaridlari Xarid komissiyasini tuzgan holda O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq shaffoflik ta'minlangan holda amalga oshirilmoqda;

Telekommunikatsiya sohasidagi faoliyatni litsenziyalash jarayoni 2021-yil aprel oyidan boshlab, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali – my.gov.uz orqali va/yoki Davlat xizmatlari agentligi orqali to'liq elektron ko'rinishda amalga oshirilib, inson omili ishtirokisiz elektron litsenziyalar rasmiylashtirilmoqda.

Bugungi kunda soha xizmatlarini ko'rsatishda, tegishli ruxsatnomalarni rasmiylashtirishda inson omilini kamaytirish choralari ko'rilmogda.

Korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish bo'yicha yuqorida sanab o'tilgan ishlarning o'zi yetarli bo'lmaydi. Avvalambor, korrupsiyaga qarshi kurashishni sohaning har bir xodimi o'zidan boshlashi kerak. Har birimiz o'z faoliyatimizga, ishimizga sof, halol va vijdonan yondashishimiz lozim. Korrupsiya bu eng kichik, ko'zga ilinmas elementdan boshlanadi. Har bir narsaga alohida e'tibor qaratishimiz kerak. Bunda, xodim yoki har bir shaxs korrupsiyani bevosita o'zi amalga oshirmasligi mumkin, lekin u atrofidagi hamkasbi yoki biror bir tanishi korrupsiya bilan shug'ullanayotganiga guvoh bo'lgan bo'lishi mumkin. Bunday holatlarni ko'rib, bilib turib yashirish ham korrupsiyaga yo'l ochib berish bilan teng malakalanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish barchamizning asosiy vazifalarimizdan biriga aylanishi kerak. Soha korxonalari rahbarlari har bir xodimiga har qanday korrupsiyaviy holat uchun jazo muqarrarligini uqtirishi ShART!!!

Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni batamom yo‘qotishda barchamiz bir tanu-bir jon bo‘lib, birgalikda samarali harakat qilib, jamiyatimiz va davlatimizning rivojiga o‘zimizning salmoqli hissamizni qo‘shaylik.

Shu bilan birga, o‘z o‘rnida foydalanuvchilarga ham murojaat qilmoqchi edim, hurmatli soha xizmatlari foydalanuvchilari !!!

Agarda, Sizlarda soha xizmatlarini ko‘rsatishda korrupsion holatlari haqida ishonchli va asosli ma‘lumotlar bo‘lsa yoki bunday holatlarga guvoh bo‘lsangiz, Vazirlik hamda tizimdagi korxonalar va tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki tuzilmalariga, shuningdek, Vazirlikning quyidagi aloqa kanallari orqali murojaat yo‘llashingiz mumkinligini ma‘lum qilamiz:

Vazirlikning rasmiy veb-sayti <https://digital.uz>;

Vazirlikning elektron pochta anticor@mitc.uz va info@digital.uz;

Vazirlikning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari (<https://www.facebook.com/minifocom>);

Vazirlikning “1199” va +998 55 501-36-72 raqamli ishonch telefonlari;

Vazirlikka og‘zaki (shaxsan) murojaat qilish.

Mazkur yo‘nalishda Siz foydalanuvchilar bilan birgalikda faoliyat olib borsak, albatta, korrupsiyaviy holatlarni bartaraf eta olamiz.

Yuborilgan xabarlar belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi hamda murojaat qiluvchining shaxsi sir saqlanishi kafolatlanadi.

Shu o‘rinda, korrupsiyaviy holatlarga Sizlar ham sababchi va ishtirokchi bo‘lib qolmasligingizni so‘rab qolaman!!!

**Hurmat bilan,**

**O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalari vaziri**